

AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH CHORA-TADBIRLARI

O'Zmu Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi talabasi

Hamarayeva Vasila Mirzohid qizi

Annotatsiya: *So'nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdorini oshirish va qo'shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og'ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo'shimcha mexanizmlarni joriy etish yo'nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.*

Аннотация: *В последние годы совершенствуется система социальной защиты населения, увеличивается объем средств, выделяемых из Государственного бюджета Республики Узбекистан в сферу социальной защиты и привлечение дополнительных ресурсов, расширяются объемы программ социальной защиты и выведение семей из трудных жизненных ситуаций, реализуются последовательные реформы в направлении внедрения дополнительных механизмов, направленных на.*

Abstract: *In recent years, improving the system of social protection of the population, increasing the amount of funds allocated from the State budget of the Republic of Uzbekistan to the field of social protection and attracting additional resources, expanding the scope of social protection programs and bringing families out of difficult life situations consistent reforms are being implemented in the direction of introducing additional mechanisms aimed at*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy himoya, davlat, daromad, kasb malakasi, iqtisodiyot YaIM, "Yagona reestr", "Ijtimoiy himoya yagona reestri".*

Ключевые слова: *Социальная защита, государство, доходы, профессиональная квалификация, экономика, ВВП, «Единый реестр», «Единый реестр социальной защиты».*

Key words: *Social protection, state, income, professional qualifications, economy, GDP, "Unified register", "Unified register of social protection".*

Ijtimoiy himoya - keng ma'noda — mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma'-noda — davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qat-lamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish,

jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat. Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o'z zimmasiga oladi. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi 20-asrning 20-y.laridan boshlab shakllana boshladi. 90-y.larga kelib, bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o'zlikni anglash, e'tiqod va an'analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo'lib qo'shildi.

Dunyo miqyosida aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, ularning ish bilan bandligini ta'minlash orqali kambag'allikdan chiqarishga bo'lgan ehtiyoj yangi vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, „..dunyo aholisining 29% kompleks ijtimoiy himoyalangan bo'lsa, 71% (5,2 milliard kishi) bunday yordamdan to'liq yoki qisman mahrumligicha qolmoqda. Dunyo davlatlari YaIM atiga 3,2% davlat ijtimoiy himoya chora-tadbirlariga sarflanmoqda“. Bu esa, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishda innovasion tendensiyalarni ilmiy o'rganish zaruriyatini ilgari suradi.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida barcha sohalarda bo'lgani kabi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda innovasion yondashuvlar qo'llanilmoqda. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga moddiy ko'mak pullarini ajratish tizimi avtomatlashtirilib, ushbu jarayonda mutassaddi shaxslar ishtiroki minimallashtirildi. Mazkur elektron tizim ayni sohada suiste'molliklarni oldini olishda raqamli iqtisodiyot yutuqlariga munosib echim yo'li bo'ldi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlariga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etishning yagona tizimini yaratish maqsadida “Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamni taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 avgusdagi PQ-4797-son Qarori qabul qilindi. Qarorda belgilab qo'yilganidek, 2021 yil 1 yanvardan boshlab davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etishda fuqarolardan 11 ta hujjat va ma'lumotnoma talab etilishi yo'l qo'yilmaydi. Eng muhimi, ular ijtimoiy yordamning 7 turidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ahamiyatli tomoni shundaki, mazkur qaror bilan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali belgilangan tartibda kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan shaxslar yoki oilalar qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotnomalarni taqdim etmasdan Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar to'lovidan ozod etish, maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rnatilgan miqdorlarda ota-onalar to'lovini to'lash, umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsliklar ijara to'lovlaridan ozod etish, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun qishki kiyim-bosh berish, ayrim fanlarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta maktablar o'quvchilarini ovqatlanish xarajatlaridan ozod etish kabi xizmatlar va imtiyozlarni ham olishga haqlidir.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi — idoralararo elektron o‘zaro hamkorlikni qo‘llagan holda kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash, ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash hamda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar va oluvchilar to‘g‘risida yagona ma‘lumotlar bazasini shakllantirish amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 21 oktyabr kuni qabul qilingan qarori bilan Kam ta‘minlangan oilalarni “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali aniqlash, ularga kam ta‘minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi[3]. Nizomga ko‘ra, ishlovchi onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (byudjet tashkilotlarida ishlaydigan onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bundan mustasno) bola 2 yoshga etguncha uni parvarishlash uchun beriladigan har oylik nafaqani olish muddati tugaganidan so‘ng bolalar nafaqasini olishi mumkin. Bolalar nafaqasi oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib tayinlanadi.

Bolalar nafaqasi 12 oy muddatga tayinlanadi, biroq oilaning eng kichik yoxud yagona bolasi tegishli 18 yoshga to‘lgan oyning oxirigacha to‘lanadi. Moddiy yordam bola (bolalar)siz yoki barcha bolalari 18 yoshdan katta oilalarga va yakka-yolg‘iz fuqarolarga 6 oy muddatga tayinlanadi. Bunda oila, 2021 yil 1 sentyabrdan – oilaning har bir a‘zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad 440 ming so‘mdan oshmaganda, 2022 yildan boshlab – oilaning har bir a‘zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad minimal iste‘mol xarajatlari miqdoridan oshmaganda kam ta‘minlangan, deb e‘tirof etiladi.

Bolalar nafaqasi va moddiy yordam tegishli arizalarga asosan “Yagona reestr” axborot tizimi orqali kam ta‘minlangan oila deb e‘tirof etilgandan so‘ng tayinlanadi. Har bir oila tomonidan ariza topshirish va “Yagona reestr” axborot tizimiga kiritish bir oyda bir marta amalga oshiriladi. Bolalar nafaqasi va moddiy yordam ariza beruvchi murojaat qilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lanadi. Moddiy yordamga muhtojlikni belgilash jarayonida suiste‘molliklarga yo‘l qo‘yilmaslik uchun 2022 yil martgacha jismoniy shaxslarning dala tomorqa er maydonlari ro‘yxati shakllantirilib, tegishli ma‘lumotlar “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimiga taqdim etib boriladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining raqamli texnologiyalar yutuqlari bilan qurollantirilishi va “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimining joriy etilishi ushbu tizimning quyidagi holatlarda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llash vositasida o‘zaro hujjat almashish jarayonini avtomatlashtirish orqali davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotnoma va tasdiqlovchi hujjatlar sonini tubdan qisqartirildi;

belgilangan mezonlarga muvofiq kam ta‘minlangan oilalarning ehtiyojmandlik darajasini ob‘ektiv baholash, davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali qarorlarni qabul qilishda sub‘ektiv yondashuv bartaraf etildi;

aholining ehtiyojmand toifasi tarkibi o`zgarishi dinamikasi monitoringi va tahlilini yuritish, ularni baholash mezonlarini respublika va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda takomillashtirildi;

davlat ijtimoiy xizmatlari va ijtimoiy yordam oluvchilarning doimiy yangilanib turadigan yagona ma'lumot bazasini shakllantirildi;

manfaatdor vazirlik, idoralar va tashkilotlarning o`zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda xizmatlarni bepul yoki imtiyozli asosda taqdim etishi uchun ma'lumot bilan ta'minlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолига давлат ижтимоий хизматлари ва ёрдамни тақдим этиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2020 йил 4 августдаги ПҚ-4797-сонли Қарори. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.08.2020 й., 07/20/4797/1138-сон).

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 21 октябрдаги “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали аниқлаш, уларга кам таъминланган оилалар болалари учун нафақа ва моддий ёрдам тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида”ги Низоми.

3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_himoya

4. <https://advice.uz/oz/document/2809>

5. <https://lex.uz/docs/-5688101>